


MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

SHARQ
IJTIMOIY
FANLAR
JURNALI

ВОСТОЧНЫЙ
ЖУРНАЛ
СОЦИАЛЬНЫХ
НАУК

ORIENTAL
JOURNAL
OF SOCIAL
SCIENCES



ISSN 2181-2829

2025





MODERN INTERPRETATION OF SOCIAL CONFLICTS

Sharofiddin Shamshurovich Khasanov*Doctor of Philosophy (PhD), Associate Professor**Deputy Head of the Faculty of Administrative and Organizational Activities**Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan**Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: Social activity, social conflicts, social confrontation, negotiations, globalization, opinions, human rights, resources, values, social interests.

Abstract: The article analyzes the modern interpretation of social conflicts, approaches to conflicts, ongoing social processes in the world, and aspects of social forecasting.

Received: 25.08.25**Accepted:** 26.08.25**Published:** 27.08.25

IJTIMOIY ZIDDIYATLARNING ZAMONAVIY TALQINI

Sharofiddin Shamshurovich Hasanov*falsafa doktori (PhD), dosent,**Ma'muriy-tashkiliy faoliyati fakulteti boshlig'i o'rinbosari,**O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi**Toshkent, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Ijtimoiy faoliyat, ijtimoiy ziddiyatlar, ijtimoiy to'qnashuv, muzokaralar, globallashuv, fikrlar, inson huquqlari, resurslar, qadriyatlar, ijtimoiy manfaatlar.

Annotatsiya: Maqolada ijtimoiy ziddiyatlarining zamonaviy talqini hamda ziddiyatlarga oid yondashuvlar, dunyoda kechayotgan ijtimoiy jarayonlar, ijtimoiy prognozlar ularni jihatlarini tahlil qilingan.

СОВРЕМЕННОЕ ТОЛКОВАНИЕ СОЦИАЛЬНЫХ КОНФЛИКТОВ

Шарофиддин Шамшурович Хасанов*доктор философии (PhD), доцент**заместитель начальника факультета**административно-организационной деятельности**Академия Министерства внутренних дел Республики Узбекистан**Ташкент, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Социальная **Аннотация:** В статье

активность, социальные конфликты, проанализированы современное толкование социальное противостояние, переговоры, социальных конфликтов, подходы к глобализация, мнения, права человека, конфликтам, происходящие в мире ресурсы, ценности, социальные интересы. социальные процессы и аспекты социального прогнозирования.

Kirish

Har bir jamiyatda ijtimoiy ziddiyatlarni o'rganish masalasi bir qator amaliy muammolarni hal qilishni taqozo etadi. Shaxsning jamiyatdagi mavjud talablar bilan bog'liq holda turmush kechirishi ko'pdan ko'p ziddiyatlarni ham o'z ichiga oladiki, ular inson hayotining mazmunini tashkil etadi. Ijtimoiy faoliyat va munosabat sub'ektlari ulardan tubdan farq qiladi. Siyosatda, odamlar harakatini baholashning mumkin, ma'naviyatdan keskin farq qiluvchi qadriyatlar va qirralari amal qiladi v.h. Aytilgan fikrlar ijtimoiy munosabatlarni umuman, va xususan ziddiyatlarni bir ma'noli ta'riflash mushkulligini asoslaydi. Nemis huquqshunosi va politologi Karl Shmitd (1888-1985 yillar) "siyosit" tushunchasini "do'st"- "dushman" qarama-qarshiligi doirasida talqin etadi. Ziddiyat uchun sub'ektni "do'st-dushman" qatori bo'yicha amaliy namoyon bo'lishi manbai eventual (lat. eventus-hodisa; ma'lum bir vaziyatda ro'y berishi mumkin bo'lgan) bo'lib, u favqulotda vaziyatlarda ro'y berishi mumkin. "Do'st-dushman" qarama-qarshiligi o'z tabiatiga ko'ra qonga yoki ma'naviyatga emas, balki kundalik amaliyotga tegishli. Xalqlar "do'st-dushman" qarama-qarshiligi asosida birlashadilar va bu qarama-qarshilik K. Shmitd fikricha, "bugungi kunda mavjud va har bir xalqqa real imkoniyat sifatida berilgan".[1.C126]

Nemis olimi faqat qisman haq: ijtimoiy ziddiyatda uning eng keskin ko'rinishlarida sub'ektlar o'zini "do'st-dushman" sifatida ajratadilar. Ammo siyosatning ijtimoiy vazifasi- odamlar hamjamiyatini boshqarish, uning manfaatlarini kelishtirish va ifodalash, ularning shakllanishi, himoyasi va amalga oshishi vositasi bo'lib xizmat qilishdir. Ijtimoiy manfaatlar qarama-qarshiligining vujudga kelishi-qonuniy, tabiiy xodisadir, garchand har qanday yirik guruh ijtimoiy faoliyat sub'ekti sifatida chiqar ekan o'z manfaatlarini umumiy manfaatlar sifatida taqdim etishga intiladi. Shu intilishning o'zida ziddiyat yashiringan, negaki ijtimoiy jarayonda ishtirok etuvchi boshqa guruhlar o'z manfaatlari ustunligiga da'vo qilishlari mumkin.

Tadqiqotning asosiy natijalari

Ijtimoiy ziddiyat - qandaydir mavhum sub'ektlar to'qnashuvi emas, balki amalda mavjud ijtimoiy kuchlar kurashidir va u yetakchilar, elitalar, tashkilotlar, partiyalar va odamlarning boshqa ittifoqlari va uyushmalari timsolida namoyon bo'ladi. Ijtimoiy ziddiyat bu - hokimlik munosabatlari tizimidagi o'rni va rolga ko'ra qarama-qarshi ijtimoiy manfaatlar, qadriyatlar, qarashlar, maqsadga ega sub'ektlarning kurashidir.[2.C 354] Ijtimoiy ziddiyat tushunchasi davlat

hokimiyati institutlarida va boshqaruvda ta'sirga ega bo'lish, ijtimoiy – ijtimoiy ahamiyatga ega qarorlarni qabul qilishda ishtirok etish, manbalarni va resurslarni taqsimlashda qatnashish, o'z manfaatlari yakka hokimligi va ularni umumiy deb qabul qilish mumkin.

Umuman olganda ijtimoiy ziddiyat o'zaro hukmron vakolat yoki resurslar ustidan bahslashuvchi ikki va undan ortiq tomonlarning (shaxslar, guruhlar, davlatlar) raqobatona hamkorligi shakli (natijasi) sifatida namoyon bo'ladi. Ziddiyat – ijtimoiy sub'ektlarning ehtimoliy hamkorlik shakllaridan biri. Biroq, kishilarning o'z maqomlaridan qoniqmasligini muntazam ravishda tug'dirib turuvchi, qarashlardagi tafovutlar va yondoshuvlarning mos kelmasligi tufayli jamiyatda yuzaga keluvchi xilma-xillik ziddiyatlik holatni yuzaga keltiradi.

Ziddiyatlar natijasida muayyan sub'ektlar (institutlar) boshqa kuchlar bilan raqobatga kirishib, boshqa kuchlar bilan ijtimoiy koalitsiyalar, ittifoqlar, bitmlar tuzish orqali hamkorlik o'rnatishga harakat qiladilar. Shu bois, ijtimoiy ziddiyatlar ijtimoiy o'yin ishtirokchilardan o'z pozitsiyalarini aniq shakllantirishni talab qiladi. Bu esa butun ijtimoiy jarayonning samaradorligi va tizimlilikiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

S.Lipset haqli ravishda ko'rsatib o'tganidek, "Demokratiyaning ijtimoiy institutlari nafaqat kelishuviga erishish, balki keskinlikni kuchaytirirish va ziddiyatlarni oshirish vositasi sifatida ham qo'llashi mumkin". [3.C 354] .

Amalda odamlarning ijtimoiy hamjamiyati ularning o'zaro ta'sirlari orqali shakllanib, ham hamkorlik, ham raqobatni nazarda tutadi.

Shu ma'noda ziddiyatlar jamiyat va hokimiyatga mavjud ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar, mos kelmagan fuqarolar pozitsiyalari haqida ma'lum qilib, vaziyatni nazorat ostiga oluvchi faoliyatni rag'batlantirishga, ijtimoiy jarayonlarda yuzaga kelgan asabiylikni bartaraf etishga undaydi. Shu bois, talabalar, hokimiyatdagi beqarorliklar va jamiyat dezintegratsiyasi ziddiyatlar yuzaga kelganligi uchun emas, balki mas'ullarning ijtimoiy qarama-qarshiliklarni bartaraf etishga qodir bo'lmaganligi, yoki ushbu kolliziyalarni [4] rad etish sababli paydo bo'lishini bilishlari zarur. Nemis olimi R.Darendorf: inson erkinligi va ijtimoiy tanlash erkinligi «boshqariluvchi ziddiyat dunyosidagina mavjud bo'ladi», deb qayd etadi [5.107p]. Shu sababli ziddiyatlarni muntazam ravishda aniqlash va bartaraf etish jamiyat barqaror va rivojlanishining muhim sharti hisoblanadi.

Aytish mumkinki, ijtimoiy ziddiyatlarning faqat ayrimlarigina haqiqatan jamiyat uchun buzg'unchi ahamiyat kasb etadi. Ziddiyatlarni aniqlash va bartaraf etish ijtimoiy tizim yaxlitligini samarali ushlab turish, markazga intiluvchi kuchlarni markazdan qochuvchi kuchlardan ustunligini saqlab turish imkoniyatini beradi.

Ijtimoiy ziddiyatlar manbalarini nazariyotchilar yo noijtimoiy yoki bo'lmasa ijtimoiy omillarda ko'radilar. Noijtimoiy omillarga bir turdagi hayvonlar orasidagi dushmanlik va inson agressivligi orasidagi o'xshashlikka asoslanuvchi ijtimoiy keskinlik shakllarining turlicha talqini kiritiladi. Biroq, zamonaviy fanlar kishilar yuqori darajada aynan ziddiyatlarga mayli bor degan nazariyalarni tasdiqlamadilar.

Ijtimoiy ziddiyatning to'g'ri tushinilishi birinchi navbatda uning asosi bo'lgan ijtimoiy qarama-qarshilik mohiyatini anglashni talab qiladi.

Ijtimoiy omillarning yetakchi rolini tan olish ijtimoiy ziddiyatlar tabiatini aniq ochib beradi. Bunday ta'rifni berishda ijtimoiy konfrontatsiya asosida yotgan uch asosiy sabab ko'rsatiladi. Birinchi navbatda – bu siyosat sub'ektlari maqomlari, ularning belgilangan vazifalari va funksiyalari, hokimiyatdagi manfaat va ehtiyojlari, resurslarning yetishmasligi belgilab beruvchi ijtimoiy munosabatlarning turli shakllari va aspektlarini keltirish mumkin. Ijtimoiy ziddiyatlarning ushbu ob'ektiv manbalari hukmron qatlam va kontrelita, muayyan kuchlar manfaatlarini ifoda etuvchi va davlat budjeti qismi uchun kurash olib boradigan bosim ko'rsatuvchi turli guruhlar, shuningdek, hokimiyat tizimining barcha ijtimoiy sub'ektlari orasida yuzaga keladi.

Bunday turdagi ziddiyatlarning tashqi tangligini pasaytirish odatda, nisbatan oson kechadi. Biroq, turli shaklda ijtimoiy o'yinga jalb etilgan tomonlarning ziddiyatogen dispozitsiyasi manbalarini faqat islohotlar orqali bartaraf etish mumkin.

Ijtimoiy ziddiyatlarning ikkinchi asosiy manbaiga kishilarning (guruhlar va uyushmalar) asosiy qadriyatlar va ijtimoiy g'oyalar, tarixiy va dolzarb voqealarga baholar, shuningdek, ijtimoiy jarayonlardagi sub'ektiv ahamiyat kasb etuvchi boshqa tasavvurlardagi ziddiyatlarni kiritish mumkin. Bunday ziddiyatlar, odatda, jamiyatning yangi ijtimoiy tizimi shakllanayotgan, ijtimoiy inqirozdan chiqish yo'llari izlanayotgan, davlatchilikni isloh qilish yo'llari borasida turlicha fikrlar to'qnashuvchi mamlakatlarda yuzaga keladi. Bunday ziddiyatlarni hal etishda murosaga kelish g'oyatda murakkab.

Ijtimoiy fanlarda ijtimoiy ziddiyatlarning uchinchi asosiy manbasiga ijtimoiy va ijtimoiy tizimlarda o'z o'rnini anglashga ko'mak beruvchi, ijtimoiy, etnik, diniy va boshqa umumiylik va uyushmalarga fuqarolarning mansubligi qaraladi. Ziddiyatlarning bunday turi, birinchi navbatda, kishilar o'zlarini yangi davlat fuqarolari sifatida anglab yetishlarida, hokimiyat bilan munosabatlarda o'zlariga yot bo'lgan noan'anaviy me'yorlarga ko'nikishlari lozim bo'lgan beqaror jamiyatlarga xos.

XX asrdagi ijtimoiy ziddiyatlarni tadqiq etuvchilarning qarashlari ikki qarama-qarshi tomonga bo'linadi. Ulardan birining fikriga ko'ra, ijtimoiy tizim muvozanatni saqlashga intiladi.

Bundan kelib chiqadiki, ijtimoiy ziddiyat vaqtinchalik va ko‘chuvchanlik xarakteriga ega. Ushbu fikrga Chikago maktab vakillari R.Park va E.Burgess ham qo‘shildi. Ular ijtimoiy ziddiyatni raqobat, moslashish, assimilyatsiya bilan bir qatorda ijtimoiy o‘zaro munosabat shakli sifatida ko‘rib chiqdilar[6.1040p].

Ijtimoiy ziddiyatlarning sabablarini bilgan holda odamlar ijtimoiy aloqalarni kuchaytiradi, bir-biriga moslashadi, ular ziddiyatlarni emas, balki ijtimoiy munosabatlarning boshqa turlarini afzal ko‘radigan guruhlariga birlashadilar. Shunday qilib, ijtimoiy ziddiyat, R.Park va E.Burgess fikricha, ijtimoiy muvozanatga erishish shaklidir, jamiyat esa, aksariyat hollarda, ziddiyat yuzaga kelmaydigan holatda bo‘ladi.

Boshqa bir tomon ziddiyat jamiyatning odatiy holati va kamdan-kam hollarda muvozanat holatida ekanligini ta’kidlaydi. Jamiyatning ziddiyatli modelini L.Kozer va R.Darendorf taqdim etadi. Ijtimoiy ziddiyat - bu shaxslar va ijtimoiy guruhlarining hokimiyatga intilishining, maqomning o‘zgarishi, daromadni qayta taqsimlash va qadriyatlarning qayta baholanishi ifodasidir[7.C295].

Ijtimoiy ziddiyat nafaqat har bir jamiyatga immanent tegishli bo‘ladi, balki u muayyan ijtimoiy funksiyalarni bajaradi. Ijtimoiy ziddiyat ijtimoiy tizimning inqiroziga yo‘l qo‘ymaydi, yangi shakllar - innovatsiyalarga yo‘l ochadi[8.C295]. Ziddiyatlar shaxslar va ijtimoiy guruhlar manbaalariga va ijtimoiy tuzilmadagi joylashgan o‘rinlariga ma’lum talablar qo‘yganligi sababli yuzaga keladi. Turli xil jamiyatlarda ziddiyatlar kechishining tabiati turlichadir. Muammolar ochiq hal etiladigan va rivojlanishning alternativ dasturlari mavjud bo‘lgan ochiq jamiyatlarda ziddiyatlar yengil kechmoqda.

Bunday jamiyat o‘zining ochiqligi, plyuralizmi bilan ijtimoiy portlashlardan himoyalangan bo‘ladi. Yopiq jamiyatlarda ijtimoiy ziddiyat bexosdan davom etadi, asta-sekin tanqidiy massani to‘playdi va inqilobiy portlashlar orqali namoyon bo‘ladi.

Ko‘plab G‘arb mamlakatlarida ijtimoiy sheriklik g‘oyasi va siyosati, asosan, mehnat huquqi me’yorlari orqali huquqiy jihatdan mustahkamlab qo‘yildi. Ijtimoiy sheriklik ijtimoiy hodisa sifatida XIX asrning ikkinchi yarmida vujudga keldi, bunda industrilashtirishning rivojlanishi natija-sida yollanma ishchilar armiyasining o‘sishi kuzatildi, burjua jamiyatida sinfiy ziddiyatlar kuchaydi. Bu davrda dunyoning qator mamlakatlarida ijtimoiy partiyalar, ishchi klubla-ri, manfaatlar (bosim) guruhleri, kasbiy va deputatlik birlashmalari vujudga keldi.

Ijtimoiy jarayonlarda kechayotgan o‘zgarishlar xususiyatlari, boshqaruv tizimi evolyusiyasi sur’ati va yo‘nalishlari ustun bo‘lgan ijtimoiy ziddiyatlar turiga bevosita bog‘liq. Ijtimoiy fanlarda ziddiyatlarni quyidagi asoslarbo‘yicha tasniflashtirish qabul qilingan:

namoyon bo'lish sohasi va nuqtai nazaridan. Bunda asosan turli inqiroz va qarama qarshiliklarning qator ko'rinishlariga ajratiladigan tashqi va ichki ijtimoiy ziddiyatlar ko'rsatiladi. Masalan, xalqaro ziddiyatlar orasida quyidagi turlar – bir davlatning ikkinchi davlatga nisbatan raqib kurashishga qaraganda yon bosishi umidida talab va da'volarni ilgari suruvchi «urush arafasida muvozanatlash» (D. Dalles); yuzaga kelgan vaziyatdan foydalangan holda dushmanga nisbatan nomuvofiq talablarni ilgari surish orqali ehtimoldagi dushmanga qarshi ig'vogarona faoliyatini amalga oshirishni nazarda tutuvchi «dushmanlikni oqlash» (R. Lebou).

Ijtimoiy ziddiyatlarning o'ziga xosligi shundaki, unda ijtimoiy kuchlar jamiyat yoki xalqaro maydonda ijtimoiy ta'sir uchun kurash olib boradilar. Umuman, ijtimoiy ziddiyatlarni ichki ijtimoiy va tashqi ijtimoiy (davlatlararo) turlari farqlanadi. Davlat va jamiyatdagi ijtimoiy hayotning mohiyati shundaki, unda o'zining ijtimoiy manfaatlarini amalga oshirishga kurashuvchi kishilar (sinflar, ijtimoiy guruhlar, partiyalar, milliy va diniy tashkilotlar, h.k.) kurashadilar. Jamiyatning ijtimoiy hayoti o'zida ma'lum bir ijtimoiy kuchlarni manfaatlarini himoya qilishga, mustahkamlashga va erishilgan natijalarni himoya qilishga, rivojlantirishga, ijtimoiy muvozanatni ta'minlashga qaratilgan hokimiyatiy munosabatlardan iborat bo'ladi.

Ziddiyatlar doirasini tadqiq etish chog'ida qaysidir turga manub bo'lgan ziddiyatlarni yana bir-biridan farq qiluvchi (ba'zan esa bir-birini to'ldiruvchi) klassifikatsiyalarga ajratish mumkin.[9.C57] Shulardan millatlararo ziddiyatlarga taaluqli bo'lgan ayrim qarashlarini keltirib o'tmoqchimiz:

Boshqarilishi qiyin bo'lgan his-hayajonli ziddiyatlar. Gap qirg'in va to'polonlar tusidagi ziddiyatlar haqida bormoqda. Bunday ziddiyatlar uchun tartibsiz holatlar “tashabbuskor” lari maqsadlarining ba'zi hollarda noaniqligi va boshqalar u yoqda tursin “tashabbuskor”lar uchun ham sodir bo'layotgan voqealarning o'zlari kutmagan darajadagi oqibatlari xarakterlidir. Bunday ziddiyatlarda tashqi omillar ko'pincha harakatlantiruvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi. Biroq ular ziddiyat sodir bo'layotgan joyda qatnashmasdan tashqi sub'ektligicha qolaveradi.

Mafkuraviy dasturlarga oid ziddiyatlar. Bunday ziddiyatlar muayyan tarixiy sharoitga ega bo'lgan ijtimoiy, milliy va diniy harakatlarning amaliy faoliyatlari bilan bog'liq. Odatda ma'lum bir davlat yoki mintaqadagi milliy talablar stixiyali tarzda emas, balki ijobiymi yoki salbiy, bo'lishidan qat'iy nazar muayyan mafkuraviy asoslardan keyin shakllanadi. Shuning uchun mafkuraviy xarakterdagi bunday ziddiyatlar muddati ko'pincha uzoq muddatgacha keskin tarzda davom etadi. O'sha keskinliklarning orqasida ma'muriy-xududiy bo'linishiga oid tortishuvga, davlat yoki ma'muriy maqomini olish masalasi va shu kabi muammolar turadi. Uzoq vaqtlardan

beri davom etib kelinayotgan kurdlar, Kashmir, Yaqin Sharqdagi muammolar bunday ziddiyatlarga misol bo'la oladi.

Ijtimoiy institutlar tizimidagi ziddiyatlar. Noaniq chegarlar, davlat hokimiyati organlari o'rtasidagi munosabatlarda, shuningdek, ijtimoiy partiyalar va harakatlarning faoliyatida uchrab turadigan ziddiyatlar ushbu ziddiyatlar qamroviga kiradi.

Mazkur bo'lim oxirida yana bir bor ta'kidlashni lozim topdikki, ziddiyatlar tipologiyasi bir qarashda umumiy xulosalardek ko'rinadi. Negaki ma'lum bir ziddiyatning bir vaqtning o'zida bir nechta tiplarga mansub bo'lishi tabiiy ekanligini unutmaslik kerakki, ziddiyatlarni tiplarga ajratishdan maqsad bu sodir bo'lib o'tgan yoki bo'layotgan voqea-hodisani tadqiq etishning boshlang'ich nuqtasini topishdan iboratdir. qolaversa, nazariy va amaliy jihatdan ziddiyatlar tipologiyasi o'rganish ziddiyatlarni bartaraf etishdagi boshlang'ich omil ekanligiga qarab uning yuzaga kelinishi, rivojlanib borishi va muxtasar holatidan baxs etishimiz mumkin.

Ziddiyatlarning yana bir qiziqarli tipologiyasini Igel univeriteti professori Robert Dal bergan. Uning fikricha ziddiyatlar quyidagicha bo'linadi:

1) bipolyar (ikki tomonlama) va multipolyar (ko'p tomonlama)-ziddiyatga kirishga tomonlar miqdoriga ko'ra

2) kommulyativ va kesishuvchi-ziddiyat ishtirokchilari o'xshashliklari va farqlaridan kelib chiqib

3) ishtirokchi qarama-qarshiligi darajasidan kelib chiqib qutublashuv yoki bo'linib ketishiga olib boruvchi ziddiyatlar

Inobatga olishlari zarurki, u yoki bu xususiyatlarga ega bo'lgan ziddiyatlar muayyan ijtimoiy jarayonlarda turlicha, masalan ayrim hollarda musobaqalashish va hamkorlikdan tortib, to qarama qarshilik, murosasizlik, antagonistik shakllarida bo'lishi mumkin.

Ziddiyatning yuzaga kelish bosqichi ziddiyatga moyil ijtimoiy sub'ektlar pozitsiyalari mos kelmaganda, qarama-qarshi tomonlar orasida muayyan bahs va raqobat predmetini ifoda etuvchi keskinlik muhiti paydo bo'lgan taqdirda yuzaga keladi.

Ziddiyat yo'nalishini nazorat qilishga uringan sub'ektning asosiy vazifasi uning asosiy sabablarini, ya'ni ishtirokchilarning asl maqsadlarini ochishdan iborat. Buning murakkab tomonlaridan biri – har bir tomonning raqib tomonga nisbatan bo'lgan asosiy sabablarini sir tutishi, yashirishga intilishi bilan belgilanadi. Ziddiyatogen munosabatlarning asosiy sabablarini izlash mobaynida boshqarish sub'ekti voqealar boshlanishiga turtki bo'luvchi sababdan ajrata olishi lozim.

Vaziyatning dastlabki baholanishidan hokimiyat organlari raqobatlashayotgan tomonlar priaritetini saqlashga urinishlari yoki biror bir tomonni qo'llab quvvatlash orqali keskinlikni

kamaytirish yohud yuksaltirishga «hissa» qo'shishlari, ma'lum bo'ladi. Biroq, har qanday vaziyatda ham hokimiyat raqobatlashayotgan tomonlar munosabatlarining me'yor va qoidalarini belgilab qo'yishi orqali ziddiyatning institutsionallashtirishiga va bu orqali uni nazorat etishiga urinishi lozim bo'ladi. Ziddiyatning institutsionallashtirishi nafaqat jamiyatning himoyalashiga va davlat xavfsizligining ta'minlanishiga, balki ayni paytning o'zida ziddiyatning o'z-o'zidan tugashiga olib keladi.

Ziddiyatlarni bartaraf etishning strategik va taktik maqsadlarini belgilash orqali hokimiyat «texnik» jihatdan: jalb etilayotgan ekspert va analitiklar, hamda davlat boshqaruviga jalb etilayotgan mutaxassislarning yuksak malakali ekanligi; kommunikatsiyalar va joriy voqealar haqidagi xabarlarini tahlil qiluvchi markazlarning ishonchliligi, ularning moddiy jihatdan ta'minlanganligi; ziddiyatlarni boshqarishga jalb etilgan hokimiyatning turli qatlamlari va bosqichlari orasida aloqalarni yaxshilash; hokimiyat institutlari tizimini voqealarni samarali nazorat qilishiga moslashtirish; qat'iy ravishda kuch ishlatish mexanizmlari tayyorligini tekshirib ko'rish kabi tayyorgarlik ishlarini ko'rish lozim. Mazkur choralar majmui yuqori qatlam qo'lida mujassamlashgan zaxiralarga mos kelishi, hamda hokimiyat imidjini, ya'ni aholi orasida ziddiyatlar ustidan davlat nazorat o'rnatganligini ta'minlashi kerak bo'ladi. Shuningdek, mutaxassislar tomonidan ziddiyatlarning bartaraf etish strategiyalari va uslublari bo'yicha bir qator foydali maslahatlar berishadi. Ziddiyatlarni bartaraf etish ko'p bosqichli jarayon bo'lib, u o'zida vaziyatni tahlili va bahosi, ziddiyatlarni bartaraf etish usulini tanlash, faoliyat rejasini shakllantirish, uni amalga oshirish, o'zining faoliyatining samaradorligini baholash kabilarni qamrab oladi[10.C143].

Ijtimoiy ziddiyatni muvaffaqiyatli hal qilish uchun, birinchi navbatda, ziddiyatning sababini aniqlashimiz kerak: biz nima tufayli ziddiyatga bormoqdamiz. Chunki haqiqiy sabab va ziddiyatning namoyon bo'lishi tubdan farq qilishi mumkin. Ikkinchidan, ziddiyatning har ikki tomoni nimani olishni xohlayotganini aniq bilishimiz kerak, chunki ba'zan odamlar uzoq vaqt nizolashadilar, uzoq vaqt bahslashadilar, va ma'lum bo'ladiki ularning pozitsiyalari unchalik farq qilmaydi. Ular shunchaki bir-birlarini eshitmaydilar va shuning uchun dushmanning maqsadlarini noto'g'ri talqin qiladilar. Uchinchidan, ziddiyatni hal qilish uchun ikkala tomon ham uni hal qilishni xohlashlari va kelishuvga erishishlari kerak. Ushbu uchta shart bajarilsa, ziddiyat sababi aniqlansa; nizolashayotgan tomonlarning har biri o'zi xohlagan narsani, qarama-qarshi tomon nima istayotganini yaxshi bilsa; barcha raqiblar ziddiyatni hal qilish istagini bildirsa, to'rtinchi bosqich: uni qanday yechish yo'llarini aniqlash qoladi. Agar dastlabki uchta shart bajarilsa, raqiblar haqiqatan ham muzokara qilishga tayyor bo'ladilar. Agar ular kelishishga tayyor bo'lsalar, ushbu yechimlarni topishlari mumkin.

Xulosa

Ijtimoiy ziddiyatni shaxslar, shaxslar guruhlari va umuman jamiyat o'rtasidagi munosabatlardagi o'zaro qarama-qarshiliklar rivojlanishining eng yuqori bosqichi deb belgilashimiz mumkin. Bu o'zaro ta'sir sub'ektlarining bir-biriga qarama-qarshi manfaatli maqsadlari va yondashuvlarining mavjudligi bilan tavsiflash mumkin. Ziddiyat yashirin yoki oshkora namoyon bo'lishi mumkin, lekin ular har doim ikki yoki undan ortiq tomonlar o'rtasidagi murosaga va ba'zan hatto dialogning yo'qligiga asoslanib yuzaga keladi. Ijtimoiy ziddiyatlarning sabablari va vazifalarini aniqlashning turli xil yondashuvlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ziddiyatli vaziyatni tahlil qilish uchun vaziyat sub'ektlarini, ularning xususiyatlarini, o'zaro ta'sirini va munosabatlarini tasavvur qilishning yagona yondashuvi mavjud emas. Ziddiyatni yuzaga kelish va uni bartaraf etish modellari turli xil usullar va yondashuvlar doirasida qurilgan. Bular ichida tavsiflovchi, simulyatsiya, optimallashtirish va qaror qabul qilish kabi modellar mavjud bo'lib, ammo, ular ijtimoiy ziddiyatlarni to'liq bartaraf etishga yetarli hisoblanmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Шмитд К. Понятие политического. Вопросы социологии. М.1992 С126]
2. А. Я. Анцупов, А. И. Шипилов. Конфликтология М. 2003. стр.354
3. А. Я. Анцупов, А. И. Шипилов. Конфликтология М. 2003. стр.354
4. Коллизия (лот. collisio) – «қарама-қарши қарашлар, интилишлар ёки манфаатлар тўқнашуви» маъноларини англатади
5. Dahrendorf R. Life Changes: Approaches to Social and Political Theory. – Chicago: 1979. – 107 p.
6. Park, R. E. and Burgess, E. W. (1921) Introduction to the science of sociology. Chicago :The University of Chicago Press. xxi, 1040 p.
7. Козер Л. А. Функции социального конфликта / Пер. с англ. О. Назаровой; Под общ. ред. Л. Г. Ионина. — Москва: Дом интеллектуальной книги: Идея-пресс, 2000. — 295 с./Дарендорф Р. «Современный социальный конфликт. Очерк политики свободы»/Пер. с нем. Л. Ю. Пантиной.- Москва.: Росспэн, 2002.
8. Глухова А. В. Политические конфликты : основания, типология динамика (теретико-методологический анализ).М.,2000 С 57.
9. Ланцова С.Политическая конфликтология: Учебное пособие.СПб.:Питер, 2008 С 143.